



TEMURIYLAR DAVRIDAGI BUYUK MEMORIY INSHOATLAR VA HAYRATLANARLI GÖZALLIGI

To'raqulov Doniyor

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix 23/1 guruh talabasi

toraqulov258@gmail.com

Annanotsiya: *Oqsaroy - bu milliy Shahrisabzning, balki butun O'zbekistonning eng katta tarixiy-me'moriy yodgorliklaridan biridir. U buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan XIV asrning yarmida bo'lib, hukmdorning siyosiy qudrati, me'moriy didi va Sharq sivilizatsiyasining yuksak darajasi.*

Kalit so'zlar: *Shahrisabz shahri, me'moriy yodgorlikalar, Oq saroy, Amir Temur saroyi, Amir Temur me'morchiligi, Temuriylar davri, Tarixiy yodgorlik, Me'moriy obida, Oqsaroy peshtog'i, Oqsaroy bezaklari, Oqsaroy yozuvi, Temur farmoni, Shahrisabz tarixiy markazi.*

Kirish:

Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabz ulkan saltanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan. Oqsaroy va Dor ussiyodat majmuasi qurilgan. Shahar atrofi qal'a devori bilan o'rab olingan. Ispaniya elchisi Klavixo o'z kundaligida shahrida ko'plab mahobatli binolar va masjidlar borligini va qurilayotganligini ta'kidlaydi. Keyinroq ham ko'plab me'moriy obidalar (Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi va boshqalar) qurildi. Hofizi Abru shaharda ko'hna devor (bandi qadim) bo'lganligi, biroq u 15-asr boshlarida buzilib ketganligini ham yozadi. O'sha paytda Shahrisabz shahrining 4 darvozasi: Ark (shimoliy), Kunchiqar (sharqiy), Kushxona (g'arbiy), Termiz (janubiy) darvozalari bo'lgan. Oqsaroyning qurilishi 1380-yilda boshlangan, hamda 1386-yilda o'z nihoyasiga yetgan. Ammo bezaklash ishlari 1404-yilga qadar cho'zilgan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan. Saroyni barpo etish davomida Xorazm, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Jumladan, gumbazli arkni yasash va bezashda tosh kesuvchi usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo'lgani gumbaz yozuvlarida saqlangan.

Saroyning faqatgina ulkan peshtog'i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlanib qolingan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Bu salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash — old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 m, balandligi 40 m,

umumiy balandligi 50 m dan oshiqroqni tashkil etadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan.

Oqsaroyning ostida maxfiy yo‘laklar bo‘lgan. Ayrim arxeologlar Shahrisabzda yer ostidan ketadigan maxfiy tunnellar topilganini aytishadi — ular saroyini boshqa harbiy yoki dam olish joylari bilan bog‘lagan bo‘lishi mumkin. Devorlar orasida havo aylanish kanallari joylashtirilgan — bu tabiiy “konditsioner” vazifasini bajargan. Saroyning bezaklari orasida yashirin timsollar — masalan, samandar (olov jonzoti) va ilohiy qush Simurg‘ tasvirlari topilgan. Ular Temurning hokimiyat va abadiylik ramzlari bo‘lgan. Oqsaroyda kuzatuv minorasi (yoki “osmon kuzatuv joyi”) mavjud bo‘lgan degan faraz bor. Temur osmon harakatlarini va vaqtni aniqlashga katta e‘tibor bergan. Saroy qurilishida 50 dan ortiq millat vakillari — fors, hind, xitoy, arab, arman va hatto yunon ustalari ishtirok etgan. Shuning uchun bezaklarda turli madaniyatlarning izlari uchraydi. Koshinlarda yashirin “Temur tamg‘asi” bor — ayrim g‘ishtlarda Temurning shaxsiy belgisiga o‘xshash ramz topilgan, ammo ko‘zga ko‘rinmas darajada bezak orasiga singdirilgan.

Saroyda Temurning maxfiy kutubxonasi bo‘lgan degan afsona bor. U yerda astrologiya, harbiy strategiya va qadimiy tarix haqidagi kitoblar saqlangan deyiladi.

Saroy darvozasi Oy chiqishiga qaragan — bu ramziy jihatdan “nurli kelajak va qudrat”ni anglatgan. Temur har bir arxitektura elementiga ma‘naviy ma‘no yuklagan. Mahalliy rivoyatlarga ko‘ra, Temur Oqsaroyini qurdirayotganda har bir g‘isht orasiga oltin tangalar qo‘ydirgan, “saroyim abadiy bo‘lsin” deb.

Arxeologik tadqiqotlarda Oqsaroy atrofida Temur davriga oid bolalar o‘yinchoqlari, bezaklar va kichik haykalchalar topilgan — bu saroy atrofida faqat harbiylar emas, balki oila a‘zolari ham yashaganini ko‘rsatadi.

“Temurning g‘ururi” — Oqsaroybuzilishining hikoyasi 1839-yil bahori. Shahrisabzga Amir Nasrullo Buxorodan katta qo‘shin bilan yo‘lga chiqadi. Uning yuragi g‘azabga to‘la: “Shahrisabz — bu mening amirlikim ichidagi davlat, ammo u menga bo‘ysunmaydi. Ular Temurning avlodiman, deydi. Ularning g‘ururi mening hokimiyatimni tahqirlaydi!” Uning maqsadi faqat shaharni egallash emas edi. U Temur merosini ramziy ravishda yo‘q qilishni istagan. Chunki Temurning ruhi Shahrisabzda yashar, xalq esa o‘zini hanuz “Temur avlodi” deb bilardi.

Qurilgan davrdagi (XIV asr) asl ko‘rinishi. Balandligi Portal (kirish darvozasi) — 38–40 metr, minoralar bilan birga 50 metrgacha bo‘lgan. Kirish qismi 22 metr, umumiy majmua 100×120 metr atrofida. Tashqi ko‘rinish Ko‘k, oq va oltin rangli glazurali koshinlar, arab yozuvli naqshlar bilan bezatilgan Ichki qismi Katta hovli, suv hovuzlari, bog‘lar, xizmat binolari, qabulxona va hammomlar Ramziy ma‘no “Oq” — poklik va ulug‘lik ramzi; saroy Temurning kuch-qudratini aks ettirgan Mashhur yozuv Peshtoq tepasida: “Agar osmon yiqilsa ham, biz yana undan balandroq saroy quramiz.”

Hozirgi holati (XXI asrda saqlanibqolgan) Saqlangan qismi Faqat kirish portalining ikkita yon devori va poydevori. Balandligi Qoldiqlar taxminan 30 metr gacha. Bezagi

Faqat ba'zi joylarda ko'k koshin izlari saqlangan; oltin va oq bezaklar yo'qolgan. Ichki hovli Butunlay vayron bo'lgan, faqat tekis maydon va poydevor izlari ko'rinadi. Atrof muhiti Endilikda ochiq muzey maydoni sifatida restavratsiya qilingan. Ahvoli Asl ulkanlik yo'qolgan, ammo me'moriy qoldiqlari hali ham Temur davri salobatini eslatadi.

Amir Temurning bo'sh qolgan qabri. Amir Temurning Shahrisabzdagi maqbarasi — “bo'sh qolgan qabr”. Bu maqbara Shahrisabz shahrining markaziy qismida, Dorut Tilovat va Dor-us Saodat majmualari tarkibida joylashgan. Aynan joy: Hazrati Imom (Shamsiddin Kulol) maqbarasi yonida, Temur oilasining oilaviy dafn joyi sifatida mo'ljallangan.

Qurilish maqsadi

Taxminan 1380-yillar oxiri — 1390-yillar boshida Amir Temurning buyurtmasi bilan qurilgan. Temur o'zining ajdodlari va o'zi uchun oilaviy nekropol (ya'ni avlodlar qabristoni) sifatida qurdirgan. Shuningdek, bu yerda Temurning o'g'li Jahongir Mirzo (Temurning suyukli farzandi) va Shamsiddin Kulol — Temurning ustozlaridan biri dafn etilgan.

Me'moriy tuzilishi. Qabrxona yer ostida joylashgan, usti esa kubballi gumbaz bilan yopilgan bo'lgan. Yer ostidagi xona olti burchakli, o'rtasida Temur uchun mo'ljallangan sarkofa (tosh qabr joyi) joylashgan. Ammo sarkofa bo'sh — chunki u yerga Temur jasadi qo'yilmagan. Arxeologik qazilmalar vaqtida (XX asrda) bu yerda hech qanday inson jasadi topilmagan.

Arxeologik izlanishlar. 1973—1975-yillar davomida Oqsaroy majmuasida arxeologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Arxeolog X. Sultonov rahbarligi ostida 1970-1980-yillarda bir qator qazishmalar olib borilgan. Natijada poldagi mozaik to'shamaning bir qismi va hovlining ma'lum hududi aniqlangan. 1994—1996-yillarda esa Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan saroyda konvertatsiya ishlari amalga oshirilgan. Muhofazaga olinilishi 2002-yili Shahrisabz shahrining 2700 yillik bayrami vaqtida UNESCO hamkorligida saroy qisman qayta ta'mirlangan.

Xulosa. Temuriylar davridagi Oqsaroy — bu shunchaki saroy emas, balki qudrat, go'zallik va ijod timsoli bo'lgan tarixiy durdona edi. U Amir Temurning salohiyati, tafakkuri va yurtiga bo'lgan muhabbatining me'moriy ifodasiga aylandi. Shahrisabz osmonida baland ko'tarilgan peshtog'lari, moviy koshinlarida jilvalangan naqshlari, har bir g'ishtida mujassam mehnat va san'at — bularning barchasi Oqsaroyning beqiyos mahobatini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi Ta'lim to'g'risidagi O'RQ-637-sonli Qonuni,
2. Axmedov B. “Amir Temur va uning davri”. – Toshkent: O'zbekiston, 1996..



3. To'xtasinov A. "Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligi". – Toshkent: Fan, 2016.
4. Raximov M. "Shahrisabz – Amir Temur shahrining durdonasi". – Samarqand: Zarafshon, 2018.

